

BOLALARNING RANG-TUS SIFATLARINI O‘ZLASHTIRISH JARAYONI

Salimova Dildora Furqat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktranti, O‘zbekiston davlat
jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

E-mail: furqatovnadildor@gmail.com

ORCID ID :0009-0002-8572-8289

Annotatsiya. Ushbu maqolada rang bildiruvchi sifatlarning o‘zlashtirilishi, ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning psixolingvistik jihatdan tahlillari yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘zlashtirayotgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ularning persektiv lug‘atida mavjud bo‘lgan rang-tus sifatlari aniqlash, rang bildiruvchi sifatlarni o‘zlashtirish jarayonidagi til xususiyatlari bo‘yicha 2 ta tajriba-sinov olib borilgan hamda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: rang, sifat, til o‘zlashtirish, persektiv lug‘at, produktiv lug‘at.

Psixolingvistikada til egallash atamasi tilni o‘rganish va til o‘zlashtirish jarayonlarini qamrab oladi. Til o‘zlashtirish esa ona tili va chet tilida til o‘zlashtirishni anglatadi. Bolalar xoh ona tilida bo‘lsin, xoh chet tilida bo‘lsin yangi so‘zni o‘rganar ekan, dastlab mustaqil so‘z turkumlaridan ot, keyin sifat va fe‘l turkumidagi so‘zlar o‘zlashtiriladi. Asosan predmetning, ba‘zan harakatning belgisini bildirgan so‘zlar sifat deyiladi. “...sifatning UGMsini «asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba‘zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kclish» ko‘rinishida tiklash mumkin. Belgi tushunchasi o‘z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi”²².

Sifat turkumiga tegishli bo‘lgan so‘zlarning asosiy qismini rang ma’nosini bildiruvchi so‘zlar tashkil etadi. Ranglarni bildiruvchi so‘zlarni o‘zlashtirish borasida ko‘plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, Klark, E., Kennedy, C., & McNally, L., Klibanoff, R.S., & Waxman, S.R., Ninio, A., Shatz, M., Behrand, D., Gelman, S.A. & Ebeling, K.S. shular jumlasidandir.

Kennedi va Nalli ta’kidlashicha, rang sifatlari til tipologiyasi va variantlashuvi bo‘yicha ishlarda markaziy o‘rin egallagani, ammo ularning ma’nolari rasmiy semantika tadqiqotchilari tomonidan nisbatan kam o‘rganilgan. Rang atamaları bilan ifodalangan muammo Charlz Tervis asarida batafsil bayon etilgan. Travis rang sifatlari o‘z ichiga olgan strukturaviy izomorf qanday ishlatilishiga qarab va noaniqlik yoki ko‘p ma’nolilik ta’siri bo‘lmaganda haqiqiy qiymatini kontekstdan kontekstga o‘tkazishi mumkinligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar rang sifatlari matn tarkibida kelganda belgiga ega bo‘lish yoki bo‘la olmasligini ko‘rib chiqadi. Masalan, bolalarga yashil barg va yashil rangga bo‘yalgan barg shaklidagi qog‘oz

²² Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. –B. 237.

berilganda retsiptiyentlar yashil rangga bo'yalgan qog'ozni belgiga ega emas deb fikr bildirishadi²³.

Ko'plab tadqiqotchilar ranglar nisbatan sekin o'zlashtiriladi degan fikrni bildirishadi. Ammo so'nggi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar ranglarni sifatlarning boshqa ma'no turlaridan ko'ra ko'proq bilishini ko'rsatmoqda. "Sifatlarni o'zlashtirish bilan bog'liq masalalarga boshqa Grammatik shakllarni o'zlashtirish bilan bog'liq masalalarga qaraganda kamroq e'tibor berilgan. Masalan, otlar va fe'llarni o'zlashtirish to'g'risida ko'plab dalillar mavjud bo'lsa-da, sifatlarni o'zlashtirish bo'yicha empirik dalillar faqat yaqinda to'plana boshlandi. Masalan, sifat grammatik shakli bilan bog'liq rivojlanish va tillararo o'zgaruvchanlik bizga lingvistik tajribaning o'zi sintaksis va semantika o'rtasidagi aloqalarni qanday shakllantirishini o'rganish imkonini beradi²⁴. Klivanof va Vaxman 3 va 4 yoshli bolalarning yangi sifatlarni obyekt xususiyatlariga moslashtirish qobiliyatlarini tekshirish maqsadida 2 ta tajriba o'tkazishadi. Tajriba uchun 64 nafar 3 va 4 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalar jalb qilinadi. 1- tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar nolisoniy nazorat topshirig'iga qaraganda yangi sifatni eshitishda obyekt xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratadilar. 2- tajribada 3 va 4 yoshli bolalarning turli asosiy darajadagi obyektlarni tavsiflash uchun yangi sifatlarni kengaytirish qobiliyati ko'rib chiqildi. Ushbu tajribaning dastlabki sinovlarini tahlil qilish 1-tajribaning natijalarini takrorlaydi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun sifatlarni o'zlashtirish nisbatan murakkabroq jarayon. Birinchidan, bolalar o'z spontan nutqlarida boshqa turdagi so'z birikmalariga nisbatan sifat turkumiga nisbatan kechroq o'zlashtirishadi. "Breyn o'z tadqiqotining dastlabki sifat-ot birikmalari atributiv emas, balki predikativ tarzda qo'llanilganini qayd etgan. U Jonatanning "katta tayoq" kabi atributivga o'xshash ifodalari ko'rsatilgan narsalarning xususiyatlari haqidagi izohlar bo'lib, hajmni ifodalash uchun ishlatilganini aytgan. Shaklan ular gapga teng bo'lib, sifatlanuvchi otlardan iborat so'z birikmalarini hois qilmagan. U "shikastlangan samolyot" yoki iboralar uchun eng yaxshi parafrazani bog'lama gap ko'rinishida taklif qilgan: "samolyot shikastlangan". "tayoq eski" kabi²⁵.

Shatz 2 yoshli 49 nafar bolalarda rang bildiruvchi so'zlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq 2 ta tadqiqot o'tkazadi. Tadqiqotlarda aniq rang atamalaridan foydalanishning obyekt atamalariga nisbatan kechikishini tushuntirish uchun bir nechta tushuntirishlar taklif qilingan. Bulardan biri uzluksiz bo'lgan asosiy perseptiv soha va kategorik bo'lgan leksik soha o'rtasida nomuvofiqlik mavjudligi ta'kidlanadi. "Ranglarni to'g'ri nomlash faqat bolalarning rang atamalari bilan

²³ Kennedy, C., & McNally, L. (2010). Color, context, and compositionality. *Synthese*, 174, 79-98. doi: 10.1007/s11229-009-9685-7

²⁴ Klivanoff, R.S., & Waxman, S.R. (2000). Basic level object categories support the acquisition of novel adjectives: Evidence from preschool-aged children. *Child Development*, 71, 649-659. doi: 10.1111/1467-8624.00173

²⁵ Ninio, A. (2004). Young children's difficulty with adjectives modifying nouns. *Journal of Child Language*, 31, 255-285. doi: 10.1017/S0305000904006191

bog‘liq tajribasi ularga idrok sohasini lingvistik toifalar bilan tartibga solishga imkon bergandagina sodir bo‘ladi”[4]. Ushbu maqolada olimlar ikki yoshli bolalarning rang atamalarini to‘g‘ri tushunishi va o‘z nutqida bemalol foydalana olish qobiliyatini ko‘rib chiqadi. Tajriba-sinov bo‘yicha 2 ta tadqiqot olib boriladi. 1- tadqiqotda 2 yoshli maktabgacha ta‘lim muassasasiga borgan bolalarning rang tushunchasiga umuman bormagan bolalarniki bilan taqqoslanadi. 2-tadqiqotda maktabga endi qadam qo‘ygan bolalarning ranglarni tushunish va nutqida qo‘llashi ko‘rib chiqiladi. Birinchi tadqiqotning asosiy natijasi shu bo‘ldiki, 24 nafar 2 yoshli bolaning 22 nafarining perseptiv lug‘atida rang sifatlari mavjud.

O‘zbek bolalari nutqida ranglarning o‘zlashtirish jarayonini psixolingvistik jihatdan tahlil qilish uchun 2 ta tajriba o‘tkazildi. Birinchi tajriba uchun o‘zbek tilini ona tili sifatida o‘zlashtirayotgan 2,5 yoshli F. Saidjon ismli bolaning so‘nggi 12 oy davomida nutqidagi so‘zlar yozib olindi va bolaning ranglarni qanday o‘zlashtirishi onasi tomonidan kuzatilib, qayd etib borildi va biz tomonimizdan tahlilga tortildi.

Tajriba natijalari statistik tahlil etilib, ranglarni ifodalash uchun qaysi so‘zlardan foydalanilganligi qayd etib borildi. Sinaluvchi dastlabki 4 oyda hech bir rangni bir-biridan ajrata olmasdi. 1 yosh-u 8 oyligida ranglarni ma‘lum bir predmetga xoslab aytishni boshladi. Misol uchun sariq rangni ifodalash uchun **ban** [banan], qizil rang uchun **oma** [olma], yashil rang uchun [a:cha] (archa so‘zini aytishda qiynalgani uchun **olovrang** [olovrang] **olov**, oppoq uchun **oppog‘** kabi so‘zlardan foydalanishi qayd etildi. Tajriba-sinov oxirida sinaluvchi tomonidan o‘zlashtirilgan sifatlarga quyidagilar qayd etildi: **ko‘k, qizil, sariq, yashil, oq, oppoq, qora, oppoq, olovrang**.

Tajriba natijalarini tahlil qilishda bolalar nutqidagi rang-tus sifatlarining o‘zlashish rivoji kuzatildi va o‘zlashish jarayonida yuzaga keluvchi xususiyatlarga e‘tibor qaratildi. Ushbu tajriba-kuzatuvga ko‘ra, bolalar nutqida rang –tus sifatlari dastlab ot turkumidagi so‘zlarga moslab o‘zlashtirilishi qayd etildi, ya‘ni bola tevarak-atrofidagi narsa-predmetlarni ko‘rib, kuzatib, ular ega bo‘lgan belgi orqali rang sifatlarini ifodalashga harakat qilishadi. Bola o‘ynaydigan koptok ko‘k bo‘lsa, ko‘k rangni aynan shu predmet orqali eslab qoladi.

1-jadval. 2-tajribadagi sinaluvchilarning yosh kesimida perseptiv lug‘atida mavjud rang-tus sifatlarining ko‘rsatkichi

Ranglar	3 yoshli (22)	4 yoshli (6)	5 yoshli(26)
Jigarrang	7	6 ta	22
Oq	11	5	17
Sariq	21	6	26
Qora	21	6	26
Ko‘k	17	5	26
Yashil	13	4	24
Qizil	18	4	14

Ikkinchi tajriba Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 4-maktabgacha ta'lim muassasasida olib borildi. Bu tajriba orqali o'zbek tilini ona tili sifatida o'zlashtirayotgan bolalarning perseptiv lug'atidan o'rin olgan rang-tus sifatleri aniqlandi. Ushbu tajriba-sinov uchun ruhiy sog'lom, nutqida kamchiligi bo'lmagan 22 nafar 3 yoshli, 6 nafar 4 yoshli, 26 nafar 5 yoshli jami 54 nafar bola tanlab olindi.

Ushbu tajriba uchun har bir retsiptiyentga bir necha xil ranglar ko'rsatilib, ular ichidan tajriba uchun tanlab olingan rang bildiruvchi so'z aytilib, shu rangni ko'rsatib berishlari so'raldi. Tajriba uchun tanlab olingan bolalar alohida xonaga birma-bir kirib, tarbiyachilari tomonidan berilgan savollar yuzasidan kerakli rang-tus sifatlarini ko'rsatib berishdi.

Ushbu tajriba natijalariga ko'ra, bolalar yoshi ulg'aygani sari rang sifatlarini o'zlashtirish darajasi ham oshib boradi, shuningdek, ular ko'pgina rang sifatlarini tushunishadi, lekin idrok qilgan sifatlarining barchasi ham, ularning faol lug'atiga o'tib ulgurmagan bo'ladi. Tadqiqotlarning shuni ko'rsatadiki, bolalar dastlab yangi sifatlarini tanish predmetdagi xususiyatlarni ifodalovchi so'zlar sifatida qabul qiladilar.

Bolalarning perseptiv lug'atida ko'plab rang-tus sifatleri bo'lishi mumkin, ammo bu sifatlar uning produktiv lug'atidan ancha keyin o'rin oladi. Demak, perseptiv lug'at tarkibidagi rang sifatleri produktiv lug'atdagi sifatlardan anchagina ko'p. Shunga qaramasdan 2 yoshli bolaning produktiv lug'atida o'z fikrini ifodalash uchun yetarlicha rang sifatleri mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. –B. 237.
2. Kennedy, C., & McNally, L. (2010). Color, context, and compositionality. *Synthese*, 174, 79-98. doi: 10.1007/s11229-009-9685-7
3. Klibanoff, R.S., & Waxman, S.R. (2000). Basic level object categories support the acquisition of novel adjectives: Evidence from preschool-aged children. *Child Development*, 71, 649-659. doi: 10.1111/1467-8624.00173
4. Ninio, A. (2004). Young children's difficulty with adjectives modifying nouns. *Journal of Child Language*, 31, 255-285. doi: 10.1017/S0305000904006191
5. Shatz, M., Behrand, D., Gelman, S.A., & Ebeling, K.S. (1996). Colour term knowledge in two-year-old. *Journal of Child Language*, 23, 177-199.
6. Asher, N. (2007). A web of words: Lexical meaning in context. Ms., CNRS-IRIT and U. Texas Austin. Berlin, B., & Kay, P. (1969). Basic color terms: Their universality and evolution. Berkeley, CA: University of California Press.
7. Szabo, Z.: 2003, On qualification, *Philosophical Perspectives* 17, 409–438.